

REFLEKSIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Akbarova Gulnoza Saminovna

Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot refleksiv kompetensiyaning psixologik va pedagogik asoslarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda refleksiyaning metakognitiv jarayonlar, tanqidiy fikrlash, shaxsiy va kasbiy rivojlanish bilan bog‘liqligi yoritiladi. Ta’lim jarayonida refleksiv kompetensiyaning o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini ongli boshqarish, qaror qabul qilish, o‘z-o‘zini baholash va metodik takomillashuvdagi roli ilmiy asosda bayon etiladi. Tadqiqot natijalari refleksivlikni zamonaviy ta’limning markaziy kompetensiyalaridan biri sifatida ko‘rsatib, uni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlaydi.

Kalit so‘zlar: refleksiv kompetensiya, metakognitsiya, tanqidiy fikrlash, pedagogik tahlil, o‘z-o‘zini baholash, kasbiy rivojlanish.

Аннотация. Исследование посвящено анализу психологических и педагогических основ рефлексивной компетенции. Рассматриваются её связь с метакогнитивными процессами, критическим мышлением, личностным и профессиональным развитием. Обоснована роль рефлексивной компетентности в осознанном управлении учебной и профессиональной деятельностью, оценивании собственных действий и принятии решений. Результаты подчёркивают значимость рефлексивности как ключевой компетенции современного образования и определяют эффективные механизмы её формирования.

Ключевые слова: рефлексивная компетенция, метакогниция, критическое мышление, педагогический анализ, самооценка, профессиональное развитие.

Abstract. This study examines the psychological and pedagogical foundations of reflective competence, highlighting its connection to metacognitive processes, critical thinking, and personal and professional development. The role of reflection in conscious regulation of learning, decision-making, self-evaluation, and methodological improvement is theoretically substantiated. The findings demonstrate that reflective competence is a key component of modern education and outline effective mechanisms for its enhancement.

Keywords: reflective competence, metacognition, critical thinking, pedagogical analysis, self-evaluation, professional development.

Kirish. Bugungi murakkab ta’lim-tarbiya sharoitida shaxsning nafaqat bilimli bo‘lishi, balki o‘z faoliyati, fikrlashi va qarorlarini ongli ravishda tahlil qila olishi

muhim kompetensiya sifatida baholanadi. Shu nuqtayi nazardan, refleksiv kompetensiya - o‘quvchi yoki pedagogning fikr yuritishi, o‘qish-o‘rgatish jarayonidagi yutuq va kamchiliklarini baholashi, o‘zini rivojlantirish strategiyalarini belgilashi - zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biri sanaladi. Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish, kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish, o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan tizimga aylantirish borasidagi islohotlar refleksiv kompetensiyani rivojlantirishni yanada dolzarblashtirmoqda. Zero, refleksivlik - mustaqil fikrlovchi, mas’uliyatli, tashabbuskor va o‘z ustida ishlay oladigan shaxsni shakllantirishning asosiy negizi hisoblanadi. O‘quvchi yoki pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmasi bo‘lmasa, ta’lim jarayonining samaradorligi pasayadi, o‘z-o‘zini baholashda subyektivlik kuchayadi, muammolarni hal etishda esa yuzaki yondashuv paydo bo‘ladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan refleksiv kompetensiya o‘qituvchining o‘z didaktik uslublarini tanqidiy ko‘rib chiqishi, ta’lim jarayonida yuzaga kelayotgan vaziyatlarni anglab, ularga mos ravishda metodik yechim topishi bilan ahamiyatli sanaladi. Bu esa ta’limning sifat ko‘rsatkichlarini oshirib, yangicha pedagogik yondashuvlarning samarali qo‘llanilishiga xizmat qiladi. Psixologik asoslari esa shaxsning o‘zini anglash, motivatsiya, emotsional intellekt, metakognitiv jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchi va pedagogda ichki tahlil, o‘z xatti-harakatlari va qarorlarining oqibatini ko‘ra olish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bois refleksiv kompetensiyaning pedagogik va psixologik asoslarini ilmiy asosda o‘rganish, uni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki shaxsning hayot davomida o‘qish va o‘zini takomillashtirish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda, nazariy-metodik tahlil metodidan foydalanilgan bo‘lib, bunda refleksiv kompetensiya tushunchasi, uning mazmuni, tuzilishi, shakllanish omillari va rivojlanish bosqichlari bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar, psixologik nazariyalar, pedagogik yondashuvlar o‘rganiladi. Dunyo olimlari hamda mahalliy tadqiqotchilarning qarashlari solishtirilib, umumlashtiriladi.

Pedagogik adabiyotlarda refleksiv kompetensiya tushunchasi o‘qituvchining kasbiy faoliyatini ongli ravishda boshqarishi, metodik faoliyatini tahlil qilishi, ta’lim jarayonini rejalashtirish va baholashda yuqori darajada mustaqil fikr yuritishi bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida talqin etiladi. Zamonaviy ta’lim nazariyasida refleksivlik - o‘qituvchining kasbiy yetukligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu yondashuv yetakchi pedagog olimlarning ilmiy izlanishlarida ham o‘z tasdig‘ini topgan.

A.J.Dyui refleksiyaning ongli fikrlash va asoslangan qaror qabul qilish jarayoni sifatida talqin qilib, o'qituvchi doimo "o'ylangan amaliyot"ni yo'lga qo'yishi lozimligini ta'kidlaydi[3]. Uning fikricha, refleksiv pedagogik faoliyat o'qituvchining ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilishi va ularni ilmiy asosda hal etishga yordam beradi. B.D.Kolbning tajribaviy o'qitish modeli ham refleksiya bosqichini ta'lim siklining asosiy tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Kolbga ko'ra, refleksiya o'qituvchiga tajribani anglash, uni qayta ishlash va kelgusi faoliyatga moslashtirish imkonini beradi. Bu jarayon pedagogning metodik mahoratini rivojlantiradi[8]. V.D.Shon pedagogning "amaliyot jarayonida refleksiya" va "amaliyotdan keyingi refleksiya" orqali o'z faoliyatini takomillashtirishini ilmiy jihatdan asoslaydi[14]. U o'qituvchini "refleksiv praktika yurituvchi mutaxassis" sifatida tasvirlab, refleksiyaning professional rivojlanishning asosiy omili deb hisoblaydi. L.S.Vigotskiy shaxsning ongli rivojlanishi, ichki nutq va metakognitiv jarayonlarning shakllanishini o'rgangan holda, ta'lim jarayonida refleksiyaning ahamiyatini psixologik-pedagogik tomondan yoritib beradi[19]. Uning fikricha, o'qituvchi o'quv faoliyatini boshqarishda refleksiv yondashuvni qo'llasa, ta'lim jarayoni samaradorligi sezilarli oshadi. D.Sh.Amonashvilining gumanistik pedagogik yondashuvda ham refleksiya muhim o'rinni egallaydi. Olim pedagogning o'z ustida ishlashi, o'z darslarini tahlil qilishi, o'quvchi bilan muloqot jarayonini qayta ko'rib chiqishi orqali kasbiy kamolotga erishishini ta'kidlaydi[16]. Shuningdek, muallif, o'quv faoliyatining nazariy asoslarini ishlab chiqish jarayonida refleksiyaning o'quvchilar fikrlashini shakllantirishdagi rolini asoslab beradi. Unga ko'ra, refleksivlik dars jarayonini ongli idrok qilish va faol o'rganishning zaruriy sharti sanaladi. Y.Y. Bondarevskaya refleksiv kompetensiyani pedagogik madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ko'rib, o'qituvchining kasbiy pozitsiyasini qayta ko'rib chiqish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va o'z faoliyatining maqsad-mohiyatini anglashda muhim deb hisoblaydi[17]. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvda esa refleksivlik o'qituvchining o'z ta'lim faoliyatini diagnostika qilish, shaxsiy-mkasbiy rivojlanish trayektoriyasini belgilash va o'z faoliyatiga tanqidiy munosabat bildirish qobiliyatining bosh omili sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv refleksiv kompetensiyani nafaqat metodik mahorat elementi, balki kasbiy o'sishning uzluksiz mexanizmi sifatida tushuntiradi.

Psixologik adabiyotlarda refleksiya shaxsning o'z fikrlash jarayoni, hissiy holati, harakatlari va qabul qilgan qarorlarini ongli ravishda tahlil qilishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab metakognitiv jarayon sifatida izohlanadi. Refleksiyaning psixologik asoslari tafakkur mexanizmlari, ichki nutq, o'zini anglash, shaxsiy identifikatsiya, emotsional-intellektual boshqaruvni qamrab oladi. Turli psixologlar refleksiyaning o'z yo'nalishlari asosida talqin qilgan bo'lib, bu yondashuvlar refleksiv kompetensiyaning mohiyatini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

A.Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida refleksiyaning asosiy mezonlari sifatida o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini baholash va o'zini nazorat qilish mexanizmlari ko'rsatiladi[1]. Unga ko'ra, shaxs o'z faoliyatini anglab borishi orqali xulq-atvorni ongli tarzda boshqaradi va kelgusidagi xatti-harakat strategiyalarini shakllantiradi. Bu esa reflektiv kompetensiyaning psixologik asosini tashkil qiladi. L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi refleksiyaning shakllanishida ichki nutqning o'rni muhim ekanini ta'kidlaydi. Vigotskiyga ko'ra, shaxsning o'z fikrini ichki dialog orqali tahlil qilishi metakognitiv refleksiyaning eng asosiy omilidir. Bu jarayon ta'limdagi ongli rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qiladi[19]. J. Piage refleksiyaning intellektual rivojlanishning natijasi deb hisoblaydi. Piage tadqiqotlarida shaxs yangi bilimlarni o'zlashtirayotganda ularni assimilyatsiya va akkomodatsiya jarayonlari orqali qayta ishlashini ta'kidlaydi[12]. Bu qayta ishlash jarayonlari aslida reflektiv tafakkurning tarkibiy qismlari ekanini ko'rsatadi. Metakognitiv nazariya asoschilaridan biri bo'lgan J.Flavell refleksiyaning shaxsning o'z bilish faoliyatini kuzatish, nazorat qilish va boshqarishga qodirlik darajasi sifatida ta'riflaydi[4]. Flavell metakognitiv monitoring va metakognitiv nazoratni reflektivlikning asosiy unsurlari sifatida ko'rsatadi. K.Levinning maydon nazariyasi ham refleksiyaning psixologik asoslarini tushunishda muhim o'rin tutadi[9]. Levinning fikricha, shaxsning ichki psixologik maydoni va uning holati o'zini anglash jarayoni orqali tartibga solinadi, bu esa xulq-atvorni ongli boshqarishga zamin yaratadi. S.L.Rubinshteyn faoliyat va ongning birligi haqidagi g'oyasida refleksiyaning shaxsning o'z faoliyatini anglab, uni qayta baholashi orqali namoyon bo'ladigan ong jarayoni sifatida ta'riflaydi[24]. Rubinshteynga ko'ra, reflektiv tafakkur insonning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bilan uzviy bog'liq. A.N.Leontyev faoliyat nazariyasida refleksiyaning ongning faoliyatga nisbatan tahliliy munosabati sifatida talqin qiladi[22]. Uning fikricha, shaxsning o'z harakatlari va motivlarini anglash reflektiv kompetensiyaning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari, zamonaviy psixologlar, masalan, D.Goulman tomonidan ilgari surilgan emotsional intellekt nazariyasi ham reflektivlikning emotsional jihatlarini yoritadi. Goulman refleksiyaning o'z emotsiyalarini anglab, boshqarish va ularga tanqidiy yondashish qobiliyati bilan bog'laydi, bu esa reflektiv kompetensiyaning emotsional poydevorini tashkil qiladi. Shu tarzda psixologik adabiyot tahlili reflektiv kompetensiya ko'p qirrali psixik jarayonlar majmui ekanini ko'rsatadi. U metakognitsiya, o'zini anglash, ichki nutq, o'z-o'zini boshqarish, emotsional nazorat kabi jarayonlarning integratsiyasi orqali shakllanadi.

So'nggi yillarda reflektiv ta'lim va reflektiv fikrlash masalalari global pedagogik tadqiqotlarda eng faol rivojlanayotgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Raqamli transformatsiya, shaxsiylashtirilgan ta'lim va metakognitiv ko'nikmalarga bo'lgan

ehtiyojning ortishi xorijiy ilmiy maktablarda refleksiv kompetensiyani chuqur o‘rganishga zamin yaratdi.

J.Mon refleksiv yozuvlar va refleksiv fikrlash metodologiyasini chuqur ishlab chiqqan olimlardan biridir. Uning tadqiqotlarida refleksiya o‘quvchilarning bilish jarayonini chuqurlashtirish, o‘z tajribalarini tahlil qilish va shaxsiy rivojlanish strategiyasini shakllantirishdagi asosiy vosita sifatida talqin etiladi[11]. Moon zamonaviy ta’limda refleksiv yozuvlarni eng samarali metakognitiv texnika sifatida ko‘rsatadi. J.Brukfeld refleksiv pedagogikaning yetakchi namoyandalaridan bo‘lib, “kritik refleksiya” konsepsiyasini ishlab chiqqan[2]. Uning fikricha, o‘qituvchi o‘z amaliyotini turli nuqtai nazarlardan qayta ko‘rib chiqishi orqali dars mazmunini, metodlarni va muloqot madaniyatini tubdan takomillashtiradi. U “to‘rt unsur” modeli (o‘zlik, o‘quvchi, jamoa, nazariya) orqali refleksiyaning amaliy tizimini yaratgan. J.Mezirov transformativ ta’lim nazariyasida refleksiyani shaxsning dunyoqarashi va qadriyatlarini qayta shakllantiruvchi jarayon sifatida talqin qiladi[10]. Uning tadqiqotlarida “kritik refleksiya” o‘quvchining hayotiy tajribalarni qayta tahlil qilishi, yangi ma’nolar yaratishi va shaxsiy o‘sishga erishishining asosi sifatida ko‘rsatiladi. L.Kember refleksiv o‘qitishning baholash mezonlarini ishlab chiqib, refleksiyaning darajaviy modelini taklif qiladi[7]. U refleksiv fikrlashni sirtqi tavsiflashdan tortib chuqur tanqidiy tahlilgacha bo‘lgan to‘rt bosqichli struktura orqali o‘lchaydi. Bu model xalqaro pedagogik tadqiqotlarda keng qo‘llanilmoqda. K.Rodgers zamonaviy talqinda refleksiv o‘qituvchini shakllantirish g‘oyasini rivojlantiradi[13]. U refleksivlikni o‘qituvchining empatiyasi, o‘zini o‘zi anglash darajasi, o‘quvchi bilan samarali kommunikatsiya qurish qobiliyati bilan bog‘laydi. Rodgersga ko‘ra, refleksiv pedagogik muhit o‘quvchilarning psixologik xavfsizligini oshiradi. H.Hatton va D.Smit refleksiv pedagogika bo‘yicha zamonaviy nazariyani ishlab chiqib, refleksiv tafakkurning “deskriptiv”, “dialogik”, “kritik” shakllarini ajratib ko‘rsatadi. Ular refleksiyani mustaqil fikrlash va kasbiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilishning asosiy mexanizmi sifatida talqin qilishadi[6]. K.Fuk va B.Gardner kritik refleksiyaning ijtimoiy-konstruktiv modelini ishlab chiqib, o‘qituvchining refleksiv jarayoni nafaqat individual fikrlash, balki ijtimoiy madaniy omillar bilan belgilanadi, deb ta’kidlaydi[5]. Ularning fikricha, zamonaviy pedagoglar refleksiya orqali o‘z amaliyotidagi yashirin stereotiplar va ijtimoiy ta’sirlarni anglab, ularni bartaraf etishi mumkin. Ushbu tadqiqotlar hozirgi ta’lim tizimida refleksiyaning ahamiyatini yana-da kuchaytiradi. global ilmiy doiralarda refleksiv kompetensiya raqamli savodxonlik, kritik fikrlash, metakognitiv monitoring, shaxsiylashtirilgan ta’lim kabi konsepsiyalar bilan integratsiya qilinmoqda. Bu esa refleksivlikni XXI asrning asosiy kompetensiyalaridan biriga aylantirmoqda.

O‘zbekiston pedagogika fanida ham refleksiv kompetensiya masalasi so‘nggi yillarda alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib bormoqda. Mahalliy olimlar

kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchi shaxsining rivojlanishi, o'qituvchining kasbiy refleksiyasi va metakognitiv jarayonlar bo'yicha olib borayotgan tadqiqotlarida refleksivlikni ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim psixologik-pedagogik jarayon sifatida talqin qiladilar.


N.Sayidaxmedov o'zining pedagogik texnologiyalar bo'yicha tadqiqotlarida refleksivlikni zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida baholaydi[25]. Muallifning fikricha, o'qituvchi refleksiyasi dars sifatini tahlil qilish, metodlarni tanlash va o'quvchilar faoliyatini diagnostika qilishda asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Uning ilmiy yondashuvida refleksiv kompetensiya o'qituvchining kasbiy madaniyatini shakllantiradi. R.Mavlonova shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va pedagogik muloqot bo'yicha izlanishlarida refleksivlikni o'qituvchining kommunikativ madaniyatining asosiy elementi sifatida ko'rsatadi[23]. U dars jarayonida refleksiv tahlilning mavjudligi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro tushunishni mustahkamlashini ta'kidlaydi. R.Ishmuhammedov interfaol metodlar va innovatsion ta'lim texnologiyalari bo'yicha tadqiqotlarida reflektiv yondashuvni o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning eng samarali vositasi sifatida ko'rsatadi[20]. Uning fikricha, refleksiya – o'quvchining o'z bilim jarayonidagi bo'shliqlarni ko'ra olishi va o'z rivojlanish strategiyasini belgilashi uchun zarur bo'lgan metakognitiv ko'nikma hisoblanadi. Sh.Sharipov pedagogik kompetensiya va kasbiy tayyorgarlik masalalarini tadqiq etib, refleksiv kompetensiyani o'qituvchining metodik tayyorgarligining ajralmas tarkibi sifatida asoslaydi[27]. Unga ko'ra, refleksiv o'qituvchi o'z faoliyatiga tanqidiy yondashadi, dars jarayonidagi natijalarni chuqur tahlil qiladi va yangi pedagogik texnologiyalarni ongli ravishda qo'llaydi. Q.Qosimova metodika sohasida olib borgan tadqiqotlarida refleksivlikni o'quvchilarning mustaqil o'rganish jarayonida yuzaga keladigan metakognitiv faoliyat shakli sifatida izohlaydi[21]. Olimning fikricha, refleksiv mashg'ulotlar o'quvchilarning fikrlash madaniyatini rivojlantiradi va ularda bilimni ongli qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi. A.Abuqodirov ta'lim boshqaruvi va pedagogik monitoring bo'yicha izlanishlarida refleksiv kompetensiyani pedagogning o'z faoliyatini rejalashtirish, baholash va takomillashtirish jarayonini boshqaruvchi asosiy psixologik-pedagogik mexanizm sifatida asoslaydi[15]. U refleksiyaning kasbiy o'sishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. H.To'lipova pedagogik psixologiya bo'yicha tadqiqotlarida refleksiyani shaxsning o'z-o'zini anglash, ichki nazorat va motivatsion jarayonlarini faollashtiruvchi psixologik omil sifatida yoritadi[26]. Uning fikricha, refleksiv kompetensiya o'quvchilarning emotsional barqarorligi va maqsadli o'rganish faoliyatini kuchaytiradi. Ushbu mahalliy ilmiy tadqiqotlar O'zbekistonda refleksiv kompetensiyaga bo'lgan ilmiy e'tibor ortib borayotganini ko'rsatadi. Ta'lim tizimida o'zini anglaydigan, faoliyatini ongli ravishda boshqaradigan, shaxsiy rivojlanish strategiyasiga ega bo'lgan o'quvchi va pedagogni shakllantirish jarayoni aynan

refleksivlik bilan bevosita bog‘liq ekanligi mahalliy adabiyotlarda alohida ta’kidlanmoqda.

Tahlil va natijalar. Refleksiv kompetensiya fenomeni turli pedagogik va psixologik nazariyalar kesishgan nuqtada shakllanadi. Ushbu tadqiqotda refleksivlikka oid klassik, zamonaviy, kognitiv, konstruktivistik va kompetensiyaviy yondashuvlar chuqur tahlil qilindi. Nazariy manbalarni o‘rganish natijasida refleksiv kompetensiyaning mazmuni, funksiyalari va tarkibiy qismlari har bir yondashuvda turlicha tushuntirilishi aniqlandi.


1. Klassik pedagogik yondashuvlar tahlili

Klassik pedagogik adabiyotlarda refleksiya ta’limning ongli jarayoni sifatida baholanadi. Ushbu yondashuvlarda refleksiyani muammoli vaziyatni hal qilishga yo‘naltirilgan ongli fikr yuritish jarayoni deb talqin etadi. Bu yondashuv natijalariga ko‘ra:




2. Konstruktivistik yondashuvlar bo‘yicha tahlil

Konstruktivizm ta’limni shaxsning faol bilim qurishi jarayoni sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv refleksiv kompetensiyani quyidagi jihatlar bilan bog‘laydi. Konstruktivistik yondashuv refleksiv kompetensiyani o‘quvchining faol bilish, tajribani tahlil qilish va o‘z ta’lim jarayonini boshqarish qobiliyati sifatida asoslaydi.




3. Metakognitiv yondashuvlar doirasidagi natijalar

Metakognitiv nazariya refleksiyani ongning o‘zini kuzatuvchi funksiyasi sifatida tushuntiradi. Bu yondashuv refleksiv kompetensiyaning psixologik asoslarini ochib beradi. Metakognitiv yondashuv refleksiv kompetensiyani shaxsning fikrlashni boshqarish, o‘z fikri va qarorlarini baholash ko‘nikmasi sifatida izohlaydi.




4. Ijtimoiy-kognitiv yondashuvlar doirasidagi natijalar

Ijtimoiy-o‘rganish nazariyasi refleksiyaning o‘z-o‘zini boshqarish jarayonining tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatadi. Ijtimoiy-kognitiv yondashuv reflektiv kompetensiyani shaxsning o‘z faoliyatini nazorat qilish va moslashtirish mexanizmi sifatida baholaydi.




5. Kompetensiyaviy yondashuvlar bo‘yicha tahlil

Zamonaviy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv reflektiv kompetensiyani kasbiy va shaxsiy rivojlanishning mezon sifatida belgilaydi. Kompetensiyaviy yondashuv reflektiv kompetensiyani ta’lim sifatining ko‘rinishi sifatida baholab, uni kasbiy faoliyatning markaziy kompetensiyalaridan biri sifatida e’tirof etadi.



6. Zamonaviy pedagogika va refleksivlik

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar refleksiyaning shaxsiy identifikatsiya, tanqidiy fikrlash va o‘z pozitsiyasini qo‘llay olish bilan bog‘laydi hamda reflektiv kompetensiyani tanqidiy fikrlashning nazariy-asosiy elementi deb qaraydi.



Munozara. Reflektiv kompetensiyaning pedagogik va psixologik asoslarini o‘rganish jarayoni shuni ko‘rsatadiki, mazkur tushuncha murakkab, ko‘p qirrali va integrativ xarakterga ega. Turli ilmiy maktablar refleksiyaning o‘zlarining nazariy yondashuvlari doirasida izohlashgan bo‘lib, bu yondashuvlarning uyg‘unlashuvi reflektiv kompetensiyaning mazmunini chuqurroq anglashga imkon beradi. Pedagogik va psixologik yondashuvlar o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ular refleksivlikning turlicha jihatlariga urg‘u beradi.

Birinchidan, pedagogik yondashuvlarda reflektiv kompetensiya, asosan, o‘qituvchining kasbiy faoliyatini tahlil qilish, metodik mahoratini baholash va ta’lim

jarayonini ongli ravishda boshqarish bilan bog‘liq ko‘nikma sifatida qaraladi. J.Dyui, D.Kolb, D.Shon singari olimlar refleksivlikni ta‘lim siklining ajralmas bosqichi sifatida ko‘rsatgan bo‘lsa, mahalliy pedagoglar ham o‘qituvchining refleksiv tahlil orqali kasbiy mahoratini oshirishiga katta e‘tibor qaratadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, refleksiv kompetensiya o‘qituvchining professional madaniyati, dars jarayonidagi qaror qabul qilish tezligi va metodik moslashuvchanlikni ta‘minlaydigan zaruriy kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, psixologik adabiyotlarda refleksiya asosan shaxsning ichki idrok jarayonlari, o‘zini anglash, metakognitiv nazorat va xatti-harakatlarni samimiy baholash bilan bog‘langan holda talqin etiladi. A.Bandura, J.Flavell, L.S.Vigotskiy kabi olimlarning tadqiqotlari refleksiyaning psixologik asoslarini tushunishda muhim o‘rin tutadi. Psixologik yondashuvning ustun tomoni shundaki, u refleksiyani inson ongining rivojlanishi, motivatsiya, emotsional intellekt va metakognitiv jarayonlar bilan bog‘lab, refleksiv kompetensiyaning shaxsiy rivojlanishdagi rolini chuqur ochib beradi.

Munozara jarayonida aniqlanishicha, pedagogik va psixologik yondashuvlarning birlashgan nuqtalaridan biri - refleksiyaning o‘qituvchi faoliyatidagi diagnostik funksiyasidir. Pedagogik yondashuv refleksiyani metodik rivojlanish vositasi sifatida ko‘rsatsa, psixologik yondashuv refleksiyani shaxsiy o‘shishning asosiy mexanizmi deb ta‘kidlaydi. Bu ikki nuqtai nazarning integratsiyasi refleksiv kompetensiyaning yanada keng, amaliy va samarali modelini yaratish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, refleksiv kompetensiyaning shakllanishi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, maqsad qo‘yish, o‘z faoliyatini nazorat qilish va o‘zlashtirish jarayonlarini ongli boshqarish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Raqamli asrda o‘quvchilarning ma‘lumotlar bilan ishlash jarayonida metakognitiv nazoratdan foydalanishi, qaror qabul qilishda o‘z xatti-harakatlarini baholashi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli refleksiv kompetensiya nafaqat pedagog, balki o‘quvchi kompetensiyalar tizimining ham ajralmas qismiga aylanmoqda.

Munozara natijalariga ko‘ra, refleksiv kompetensiyaning rivojlantirish mexanizmlari ham nazariy, ham amaliy jihatdan yanada mukammallashtirilishi zarur. Xususan, treninglar, refleksiv mashg‘ulotlar, refleksiv yozuvlar, portfoliolar, o‘z-o‘zini baholash texnikalari va interfaol metodlar bu kompetensiyaning shakllanishida samarali vosita ekanligi aniqlanmoqda. Biroq refleksiv kompetensiyaning baholash mezonlarining turli ilmiy maktablarda bir xil emasligi, uni o‘lchashda yagona yondashuvning mavjud emasligi muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Umuman olganda, pedagogik va psixologik yondashuvlarning taqqoslanishi refleksiv kompetensiyaning nafaqat nazariy tushuncha, balki shaxs rivojlanishini boshqaruvchi amaliy mexanizm sifatida ham muhimligini ko‘rsatadi. Refleksiv kompetensiyaning chuqur o‘rganish ta‘lim sohasida samaradorlikni oshirish, o‘qituvchi va o‘quvchi

faoliyatini takomillashtirish, uzluksiz ta’limni amalga oshirishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, reflektiv kompetensiya zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u pedagogik va psixologik nazariyalar uyg‘unligida shakllanadigan murakkab, ko‘p qirrali fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotning nazariy, amaliy va konseptual tahlillari quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi:

1. Reflektiv kompetensiya integrativ tushuncha bo‘lib, u metakognitiv jarayonlar, tanqidiy fikrlash, o‘z faoliyatini baholash, emotsional boshqaruv, kasbiy o‘sish va shaxsiy rivojlanish kabi bir nechta psixologik va pedagogik komponentlarning uyg‘unlashuviga asoslanadi.

2. Pedagogik yondashuvlar reflektiv kompetensiyaning o‘qituvchi faoliyatini takomillashtirish, darsni tahlil qilish, metodik moslashuvchanlik va ta’lim sifatini oshirish jarayonlarida muhim omil sifatida baholaydi. Reflektiv tahlil pedagogning kasbiy madaniyati va intellektual faolligini kuchaytiradi.

3. Psixologik yondashuvlar refleksiyaning o‘zini anglash, metakognitiv monitoring, o‘z-o‘zini boshqarish va ichki nazorat mexanizmlari bilan izohlaydi. Bu reflektiv kompetensiyaning shaxsiy rivojlanish va kognitiv faoliyatdagi o‘rnini chuqur asoslab beradi.

4. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, konstruktivizm, metakognitiv nazariya va kompetensiyaviy yondashuv reflektiv kompetensiyaning ta’lim jarayonining markazida turuvchi jarayon sifatida talqin qiladi. Ularning umumiy jihati shundaki, o‘quvchi va pedagog faoliyatining ongli boshqarilishini ta’minlashdir.

5. Reflektiv kompetensiyaning rivojlanishi o‘quvchilar va o‘qituvchilarda muhim ijobiy o‘zgarishlar keltirib chiqaradi, jumladan: mustaqil fikrlashning kuchayishi, qaror qabul qilishda aniqlik, o‘z-o‘zini baholash madaniyatining shakllanishi, emotsional barqarorlikning ortishi, ta’lim jarayoniga nisbatan ongli yondashuvning shakllanishi hisoblanadi.

6. Tadqiqot natijalari reflektiv kompetensiyaning takomillashtirish uchun tizimli yondashuv zarurligini tasdiqlaydi, ya’ni reflektiv mashg‘ulotlar, portfoliolar, reflektiv yozuvlar, o‘z-o‘zini tahlil qilish usullari va innovatsion interfaol metodlar doimiy ravishda qo‘llab borilishi samaradorlikni oshiradi. Pedagogik va psixologik omillar o‘zaro chambarchas bog‘liq, bu reflektiv kompetensiyaning rivojlantirishni faqat kompleks, integratsion yondashuv orqali amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, reflektiv kompetensiya ta’limning innovatsion rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalar qatoriga kiradi. Uning ilmiy-nazariy o‘rganilishi, amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga keng joriy etish pedagoglar va o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1986.
2. Brookfield S. Becoming a Critically Reflective Teacher. — San Francisco: Jossey-Bass, 1995.
3. Dewey J. How We Think. — Boston: D.C. Heath & Co., 1992. — 226 p.
4. Flavell J. H. Metacognition and Cognitive Monitoring. // American Psychologist. — 1979. — №34. — P. 906–911.
5. Fook J., Gardner B. Practising Critical Reflection: A Resource Handbook. — Maidenhead: Open University Press, 2007.
6. Hatton N., Smith D. Reflection in Teacher Education: Towards Definition and Implementation. // Teaching and Teacher Education. — 1995. — Vol. 11(1). — P. 33–49.
7. Kember D. Evaluating Teaching and Learning: A Practical Handbook. — London: Routledge, 2009.
8. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. — 355 p.
9. Lewin K. Field Theory in Social Science. — New York: Harper & Row, 1951.
10. Mezirow J. Transformative Dimensions of Adult Learning. — San Francisco: Jossey-Bass, 1991.
11. Moon J. Reflection in Learning and Professional Development. — London: RoutledgeFalmer, 1999.
12. Piaget J. The Psychology of Intelligence. — London: Routledge, 1950.
13. Rodgers C. Defining Reflection: Another Look at John Dewey and Reflective Thinking. // Teachers College Record. — 2002. — Vol.104(4). — P. 842–866.
14. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — New York: Basic Books, 1983.
15. Абдуқодиров А. А. Таълим бошқаруви ва педагогик мониторинг. — Тошкент: Tamaddun, 2014.
16. Амонашвили Ш. А. Педагогика сотрудничества. — М.: Педагогика, 1996. - 194 с.
17. Бондаревская Е. В. Педагогическая культура и её формирование. — Ростов н/Д: РГУ, 1995. - 312 с.
18. Выготский Л. С. Мышление и речь. — М.: Педагогика, 1982. - 348 с.
19. Выготский Л. С. Психология развития ребенка. — М.: Педагогика, 1984.
20. Ишмухамедов Р. Ж., Абдуқодиров А. А., Пардаев А. Интерактив таълим методлари. — Тошкент: Ziyonet, 2018.
21. Қосимова Қ. Методика ва инновацион таълим технологиялари. — Тошкент: “Sano-standart”, 2019.
22. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Политиздат, 1975.
23. Мавлонова Р. Педагогик мулоқот ва шахсга йўналтирилган таълим. — Тошкент: Фан, 2010.
24. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. — СПб.: Питер, 2002.
25. Саидахмедов Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. — Тошкент: Ўқитувчи, 2003.
26. Тўлипов Х., Усмонов Б. Педагогик психология. — Тошкент: Ўқитувчи, 2009.
27. Шарипов Ш. Педагогик компетентлик асослари. — Тошкент: Фан, 2015.